



_____ *hokimligi*
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ *maktabgacha va*
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
tarix fani o'qituvchisi

_____ *ning*
20__-20__-o'quv yilida 11-sinf II yarim
yillik uchun O'zbekiston tarixi fanidan

DARS

ISHLANMALARI

20__-20__-o‘quv yili 11-sinf O‘zbekiston tarixi fanidan II yarim yillik taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazariy soat	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	Ta‘lim tizimidagi islohotlar.	1		
2.	Ta‘lim tizimidagi islohotlar	1		
3.	Ilm-fanda erishilgan yutuqlar	1		
4.	Jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi.	1		
5.	O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati.	1		
6.	Ma‘naviy va tarixiy merosga munosabat. Buyuk ajdodlar xotirasining tiklanishi	1		
7.	Ma‘naviy va tarixiy merosga munosabat. Buyuk ajdodlar xotirasining tiklanishi	1		
8.	BSB-2. (50 ball) Loyiha ishi taqdimoti	1		
9.	Milliy va diniy qadriyatlarning qayta tiklanishi.	1		
10.	Madaniyat va san’at taraqqiyoti	1		
11.	O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining shakllanishi va ustuvor yo‘nalishlari	1		
12.	Markaziy Osiyo - O‘zbekiston tashqi siyosatining	1		
13.	O‘zbekiston va dunyoning yetakchi mamlakatlari	1		
14.	O‘zbekiston va Sharqning rivojlangan davlatlari	1		
15.	O‘zbekiston va Birlashgan Millatlar Tashkiloti: o‘zaro hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari.	1		
16.	O‘zbekistonning mintaqaviy tashkilotlar doirasida	1		
17.	CHSB-2. (40 ball)	1		
18.	Yakuniy dars	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Ta'lim tizimidagi islohotlar.

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: mustaqillik deganda, avvalo, davlatning suverenligi, ichki va tashqi siyosatini mustaqil belgilashi, o'z qonunlarini qabul qilishi va fuqarolari huquqlarini himoya qilishi haqida tushuncha berish. Bugungi hayotimizni tahlil qilish va kelajakni ishonch bilan tasavvur qilish, tarix milliy g'ururimiz, Vatanni sevishga undovchi kuch, kelajakka mas'uliyat bilan qarashga o'rgatish.

Tarbiyaviy: mustaqillik xalqimizning eng katta g'alabasi sifatida milliy tiklanish va taraqqiyotning yangi davrini boshlanganligini, yurtimizda milliy davlatchilikni mustahkamlash, bozor iqtisodiyotiga o'tish, madaniyat va ma'naviyatni yuksaltirish, xalq farovonligini oshirish yo'lida keng ko'lamli islohotlar olib borilayotganligi haqida tushuncha berish.

Rivojlantiruvchi: faktlar va voqealar bilan tanishtirish, mustaqil fikrlash, tahlil qilish, bahs yuritish va xulosa chiqarish, mustaqillik yillarida xalqimiz erishgan yutuqlarni chuqur anglab, kelajakda Vatanimiz ravnaqi uchun hissa qo'shadigan shaxs sifatida shakllantirish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar tizimi.

Kommunikativ kompetensiya:

o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, davr bilan dialogga kirishish, ilmiy muloqotni tashkil etish;

ijtimoiy moslashuvchanlik, o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;

muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o'z nuqtai nazarini asoslash, himoya qilish va jamoaviy qarorlar qabul qilish;

muloqot jarayonida o'zining his-tuyg'ularini boshqarish, nizoli vaziyatlarda konstruktiv qarorlar qabul qilish.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish, jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish;

o'z xatti-harakatini adekvat baholash, o'z-o'zini nazorat qilish, halollik, to'g'rilik kabi sifatlarga ega bo'lish;

o'z ustida mustaqil ishlash va ijodiy-izlanishga doir faoliyatni tashkil etish.

Darsning metodi: og'zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Maktabgacha ta'lim tizimining takomillashuvi

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, ta'lim tizimini tubdan isloh qilish muhim masalaga aylandi. Shu maqsadda bosqichma-bosqich huquqiy asoslar yaratildi. 1992-yil 2-iyulda "Ta'lim



to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Bu qonunga ko'ra, ta'lim siyosati xalqning tarixiy tajribasi, madaniyati, ilm-fani va umuminsoniy qadriyatlar asosida yuritilishi belgilandi. So'nggi yillarda maktabgacha ta'limga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2017-yildan boshlab bu sohani takomillashtirish uchun yangi huquqiy asoslar ishlab chiqildi. Bu hujjatlar maktabgacha ta'lim muassasalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Uzoq yillardan beri mavjud muammolarni bosqichma-bosqich hal qilish jarayoni boshlandi. Eng katta muammo bog'chalar sonining yetarli emasligi edi.

Bu muammoni hal qilish uchun yangi tarmoq - xususiy sector faoliyati kengaytirildi. 2019-yilda kichik yoshdagi bolalarni bog'chalarga qamrab olish darajasi sezilarli oshdi. Bog'chalar soni ham ko'paydi, bu esa tizimning rivojlanayotganini ko'rsatadi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida davlat, nodavlat va davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan muassasalar faoliyat yuritmoqda. Nodavlat muassasalar doirasida oilaviy bog'chalar tashkil etishga ham ruxsat berilgan. Bu ikki jihatdan foydali: bolalarni bog'cha bilan qamrab olish kengayadi va yangi ish o'rinlari yaratiladi. Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar nodavlat bog'chalar sonini oshirish va ularning xizmat turlarini kengaytirish uchun mustahkam asos bo'ldi. 2023-yilda O'zbekistonda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tashkil etildi. Bu yangi vazirlik ta'lim tizimini

yaxshilash va muvofiqlashtirishga qaratilgan muhim qadam bo'ldi.

2024-yilda maktabgacha ta'lim sohasida sezilarli o'sish kuzatildi. Mamlakat bo'ylab minglab yangi bog'chalar qurildi va ularda 100 minglab qo'shimcha o'rinlar yaratildi. Bu orqali bolalarni bog'chalarga qamrab olish darajasi oshdi. 2023-yilda bu ko'rsatkich 74 foiz bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda 76 foizga yetdi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ishlayotgan xodimlar orasida oliy ma'lumotga ega bo'lganlar soni ham ortdi. Bu ko'rsatkich 34,6 foizga yetkazildi. Bu esa ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Maktab ta'limi tizimida amalga oshirilgan islohotlar

Xalqaro tajribani muntazam o'rganib borish va ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida 1997-yil 29-avgustda "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi. Unga ko'ra, islohotlar quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi belgilandi: birinchi bosqich


1997-2001-yillar, ikkinchi bosqich 2001-2005-yillar hamda uchinchi bosqich 2005-yil va undan keyingi yillarni qamrab oladi. Mazkur islohotlar asosida 9+3 majburiy ta'lim tizimi yo'lga qo'yildi. Unga ko'ra, 9 yil maktabda ta'lim olib, keyin o'quvfaoliyatini kasb-hunar kollejlari yoki akademik litseylarda davom ettirish mumkin bo'ldi. Zamonaviy ta'lim talablariga mos ravishda O'zbekistonda 12 yillik ta'lim tizimini takomillashtirish zarur bo'ldi.

Ayniqsa, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining ish bilan ta'minlanishida yuzaga kelgan muammolar bu sohani tubdan isloh qilishni talab etdi. Bu borada rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etdi. 2017-yil umumta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida islohotlar yili bo'ldi. Maktab bitiruvchilari va ularning ota-onalari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar, shuningdek, kelib tushgan takliflar asosida Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 9+3 shaklidagi majburiy ta'limdan to'liq 11 yillik ta'lim tizimiga o'tildi.

Bu o'zgarishlar ta'lim sifatini oshirish, yoshlarni zamonaviy bilim va kasblarga tayyorlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, O'zbekistonda yangi turdagi ta'lim muassasalari tashkil etildi. Ulug' allomalarimiz - Mirzo Ulug'bek va Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktablar, Abdulla Qodiriy, Hamid Olimjon va Zulfiya, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Ibroyim Yusupov, Ogahiy, Is'hoqxon Ibrat, Muhammad Yusuf va Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktablari faoliyat boshladi. Shuningdek, "Temurbeklar maktabi" kabi zamonaviy va namunaviy harbiy ta'lim

dargohlari tashkil etildi. Bu maktablar iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularni qo‘llab-quvvatlash va yetuk mutaxassislar sifatida tarbiyalashga qaratilgan. 2019-yil 20-fevralda Prezident maktablarini tashkil etish bo‘yicha qaror qabul qilindi. Dastlab Toshkent, Namangan, Xiva va Nukus shaharlarida ushbu maktablar ochildi. 4-sinfni tugatgan o‘quvchilar mantiqiy fikrlash testlari, yozma imtihon va suhbat asosida tanlab olindi. Maktablar avval cheklangan miqdorda tashkil etildi, chunki ularni boshqarish uchun yangi modelni sinab ko‘rish zarur edi. Keyinchalik 2020-2021-yillarda Prezident maktablari O‘zbekistonning barcha hududlarida tashkil etildi. Shu bilan birga, ixtisoslashtirilgan va ijod maktablari soni ham oshdi. Ixtisoslashtirilgan maktablarda aniq va tabiiy fanlar bilan birga O‘zbekiston tarixi chuqurlashtirib o‘qitiladi. Shuningdek, sun‘iy intellekt, robototexnika, agrotexnologiya, biotexnologiya kabi yo‘nalishlar

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari sonining o’sib borishi



bo‘yicha qo‘shimcha kurslar tashkil etildi.

Chet til lar bo‘yicha IELTS, TOEFL va SAT imtihonlariga tayyorlov mashg‘ulotlari ham yo‘lga qo‘yildi. Iqtidorli yoshlarning bilimini amaliyotda qo‘llay olishiga imkon yaratish maqsadida maktablar zamonaviy laboratoriya jihozlari va kimyoviy reagentlar bilan ta‘minlandi. Fizika, kimyo va biologiya fanlari uchun maxsus jihozlar olib kelindi. 2019-yildan boshlab xususiy maktablar tashkil etish va davlat-xususiy sheriklik imkoniyatlaridan foydalanish kengaydi. Soliq imtiyozlari berilishi bu jarayonni tezlashtirdi. 2018/2019-o‘quv yilida xususiy maktablarda o‘qiyotgan o‘quvchilar soni 13 mingdan ortgan bo‘lsa, 2024/2025-o‘quv yilida bu ko‘rsatkich yanada oshdi. Mamlakat taraqqiyoti har doim bilimli va yetuk kadrlarga bog‘liq bo‘lgan. Shu sababli oliy ta‘lim tizimi ta‘limning eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Oliy ta‘lim tizimida 2016-yildan keyin boshlangan islohotlaryoshlarning kelajakdagi kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini qanday o‘zgartirdi?
2. Xorijiy universitetlar va xususiy oliy ta‘lim muassasalarining ochilishi talabalarga qanday imkoniyatlar beradi?
3. Sizningcha, "ikki diplomli tizim"ning yoshlar uchun eng katta foydasi nimada?

V. O‘quvchilarni rag‘batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

VI. Uygavazifani e‘lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O‘IBDO‘: _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Ta'lim tizimidagi islohotlar.

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: mustaqillik deganda, avvalo, davlatning suverenligi, ichki va tashqi siyosatini mustaqil belgilashi, o'z qonunlarini qabul qilishi va fuqarolari huquqlarini himoya qilishi haqida tushuncha berish. Bugungi hayotimizni tahlil qilish va kelajakni ishonch bilan tasavvur qilish, tarix milliy g'ururimiz, Vatanni sevishga undovchi kuch, kelajakka mas'uliyat bilan qarashga o'rgatish.

Tarbiyaviy: mustaqillik xalqimizning eng katta g'alabasi sifatida milliy tiklanish va taraqqiyotning yangi davrini boshlanganligini, yurtimizda milliy davlatchilikni mustahkamlash, bozor iqtisodiyotiga o'tish, madaniyat va ma'naviyatni yuksaltirish, xalq farovonligini oshirish yo'lida keng ko'lamlil islohotlar olib borilayotganligi haqida tushuncha berish.

Rivojlantiruvchi: faktlar va voqealar bilan tanishtirish, mustaqil fikrlash, tahlil qilish, bahs yuritish va xulosa chiqarish, mustaqillik yillarida xalqimiz erishgan yutuqlarni chuqur anglab, kelajakda Vatanimiz ravnaqi uchun hissa qo'shadigan shaxs sifatida shakllantirish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar tizimi.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

axborotlarni mustaqil izlab topish, tahlil etish, qiyoslash va xulosa chiqarish; axborot manbalaridan samarali va oqilona foydalanish, hujjatlar ustida ishlash; axborot iste'moli madaniyatini egallash, axborot xavfsizligini ta'minlash va axborot xurujlariga qarshi kurashish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

jamiyatdagi voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish; voqea-hodisalarga nisbatan ogohlik va hushyorlik bilan munosabatda bo'lish, tashabbus ko'rsatish; o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish.

Darsning metodi: og'zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Times Higher Education (THE) Impact Rankings natijalariga ko'ra, 2024-yilda O'zbekistondagi 53 ta oliyta'lim muassasasi global reytingga kiritildi va ulardan 7 tasi eng ilg'or 1000 talikdan joy oldi. Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni yechish imkoni tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi.

Shavkat Mirziyoyev

2020-yildan matematika, kimyo, biologiya, axborot tizimlari va informatika fanlari bo'yicha milliy test tizimini joriy etish boshlandi. 2025-yilda O'zbekistondagi 23 ta oliy ta'lim muassasasi QS (Quacquarelli Symonds) xalqaro reytingining Markaziy Osiyodagi eng yetakchi universitetlar ro'yxatidan o'rin oldi. Times Higher Education



(THE) Impact Rankings natijalariga ko'ra, 2024-yilda O'zbekistondagi 53 ta oliy ta'lim muassasasi global reytingga kiritildi va ulardan 7 tasi eng ilg'or 1000 talikdan joy oldi.

1992-yilda O'zbekistondagi 6 ta oliy ta'lim muassasasida test sinovi asosida o'qishga qabul qilish tajriba tariqasida yo'lga qo'yildi. 1993-yilda esa 46 ta oliy ta'lim muassasasining bir qismida test sinovlari o'tkazildi. 1994-yilda Davlat test markazi tashkil etilib, oliy ta'limga test asosida qabul qilish amaliyoti rasman joriy etildi. 2016-yildan boshlab O'zbekiston

Respublikasi oliy ta'lim tizimida tub islohotlar amalga oshirildi. Natijada 2016-yilda 9 foizga yaqin bitiruvchi oliy ta'lim bosqichida o'qishni davom ettirish imkoniyatiga ega bo'lgan bo'lsa, keyingi yillarda bu ko'rsatkich muntazam oshib bordi. Xususan, 2019-yilda oliy ta'limga qabul parametrlari 2016-yilga nisbatan 2,5 barobar o'sdi. 2025-yilda esa oliy ta'lim muassasalari soni 202 taga yetdi.

Oliy ta'lim muassasalari, ularning fi i a I lari, shuningdek, xorijiy universitetlarning fi i a I lari tashkil etildi. Xususi oliy ta'lim muassasalarini ochishga keng imkoniyatlar yaratildi. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida 2 yillik magistratura bosqichi mavjud bo'lib, bu bosqichda turli mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlanadi.

Magistratura bitiruvchilari oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchi, ilmiy-tadqiqot institutlarida ilmiy xodim yoki boshqa tashkilotlarda mutaxassis sifatida faoliyat yuritish imkoniga ega bo'ladi. "O'zbekiston - 2030" strategiyasida xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda "ikki diplomli tizim"ni joriy etish belgilangan. Bu tizim kamida 50 ta qo'shma ta'lim dasturi asosida amalga oshiriladi.

Maqsad O'zbekiston talabalarining xalqaro darajadagi bilim va diplomga ega bo'lishlarini ta'minlashdir. Shuningdek, O'zbekistondagi 10 ta oliy ta'lim muassasasini dunyoning eng nufuzli 1000 ta universiteti ro'yxatiga kiritish rejalashtirilgan. Bu orqali mamlakatda ta'lim sifati oshiriladi, ilmiy salohiyat kuchaytiriladi va xalqaro miqyosda raqobatbardosh kadrlar tayyorlanadi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablarning boshqa maktablardan farqi nimada?
2. Sizningcha, sun'iy intellekt, robototexnika, chet tillar kabi qo'shimcha kurslarning yoshlar kelajagidagi o'rni qanday bo'ladi?

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.



O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

vab-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. vab-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

38 listdan iborat 11-sinf O'zbekiston tarixi fanidan II yarim yillik konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali vab-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'g'arak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**